


# TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziysi 1/2024  
ilmiy uslubiy jurnal*





## FILOLOGIYA FANLARI

<b>F.R.Ravshanov</b> Shoh Hakim Xolis Toshkandiy .....	109
<b>A.C.Мусаев</b> О качестве переводов русских слов и фразеологизмов на узбекский язык.....	113
<b>N. D. Hasanov</b> Masnaviy va Mabdal nur .....	115
<b>G'.O.Xolbutayev</b> Kulgiga asoslangan folklor janrlarning o'rganilishi .....	120
<b>X.Xolmurodov., U.Mustanov</b> Alisher Navoiy she'riyatida ishqiy obrazlar muvoziyligi.....	123
<b>N.Q.Bo'riyeva</b> J.R.R.Tolkin asarlarining zamonaviy intertekstda aks etishi.....	126
<b>A.L.Kenjaye</b> A.S.Pushkinnin "... ga" she'ri tahlili.....	130
<b>З.Ш.Жумаева</b> Структурно-семантические типы фразеологизмов .....	133
<b>J.A.Lutfullayev</b> "Mungli ko'zlar" romanining mavzu kol'ami va tasvir uslubi .....	135
<b>D.E.Kariyeva</b> Teaching english vocabulary to students of economic universities.....	140

## TABIIY VA ANIQ FANLAR

<b>G.I.Sayfullayeva., M.H.Norqulova</b> Astronomiya darslarining samaradorligini oshirishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish .....	144
<b>M.R.G'o'dalov., N.D.Qosimov</b> Sangzor havzasida tarqalgan tuproq turlari va ularning xususiyatlari .....	148
<b>F.P.Raxmonkulov</b> O'quv jarayonini tashkil etishda onlayn xizmatlardan foydalanish.....	151
<b>P.P.Кучкарова</b> Кольчато -цепных перегруппировках лигандов при комплексообразовании с ионами переходных металлов .....	154
<b>F.Q.Tugalov</b> Fizika va biologiya fanlari integratsiyasi .....	158
<b>S.S.Alikulov</b> Maktab fizika kursida robototexnika asoslarini o'rganish .....	160
<b>H.T.To'rayeva</b> Organik kimyonni klaster usulida o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	164

## YOSH TADQIQOTCHILAR

<b>O'.H.Mavlonova</b> Xushmuomalalik me'yirlari va urfga kirgan odatlar.....	169
<b>X.A.Uzmanova</b> O'zbek she'riyatida ramzlar tasnifi.....	176
<b>K.X.Abduvaliyeva</b> Kimyoviy masalalar yechish usullaridan foydalanishning ahamiyati .....	180
<b>Sh.R.Bobobekov</b> Kiberhujum va uning salbiy ta'sirlarini oldini olish yo'llari .....	183
<b>Sh.A.Jo'rarev</b> Erkin Vohidov so'z olami va ijod saboglari .....	188
<b>G.B.Nafasova</b> Praxeological approach to development of logical competence of future physics teachers.....	191
<b>M.B.Qodirova</b> Hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zlarning ingliz tiliga tarjimasi xususida .....	195
<b>Sh.N.Avazbekova</b> O'quvchilarda zamonaviy integrativ metodlar asosida ilmiy xabardorlik kompetensiyasini rivojlantirish.....	199
<b>A.А.Якунина</b> Проблема определения термина концепт в современной лингвистике .....	202
<b>М.Ш.Яхшиева</b> Занятий аэробикой и её всестороннее влияние на организм студенток .....	207
<b>F.X.Dadaboyeva</b> O'quvchilarga ingliz tilini o'qitish jarayonida og'zaki nutqni shakllantirishning nazariy asoslari xususida .....	211
<b>R.I.Rasulova</b> Ekologik ta'limganing samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi .....	216
<b>Y.A.Ismatillayeva</b> Ekologik tarbiyaga oid tarixiy materiallardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari .....	219
<b>О.Ф.Ахмедов</b> Формирование межнациональной культуры в начальных классах .....	223
<b>M.Sh.Shotirova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishda tarbiya fanining o'rni .....	227
<b>G.X.Norbekova</b> Afsun va unga oid birliklarning madaniyatlar kesishuvidanagi o'rni .....	231
<b>Sh.T.Mirzamatova</b> O'quvchilar shaxsiyatining psixologik xususiyatlari orqali kimyo fani bo'yicha bilimlarni optimallashtirish .....	235
<b>Z.Yulchiyeva</b> Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida ta'limi o'yinlardan foydalanish....	237



# ORGANIK KIMYONI KLASTER USULIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Habiba Toshboboyevna To'rayeva – katta o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Organik kimyoni klaster usulida o'qitish metodikasini uzlusiz ta'lif jarayonida ta'lif turlari o'ttasidagi ilmiy, uslubiy va ta'lif vositalarini rivojlantirish, pedagogik ta'lif innovatsion klasterini amaliyatga tatbiq etish bilan bog'liq ilmiy-pedagogik loyihalarni tajriba-sinovdan o'tkazishdan iborat.

**Аннотация:** Разработка научно-методического и образовательного инструментария в процессе непрерывного образования по методике преподавания органической химии кластерным методом, начиная с апробации научно-педагогических проектов, связанных с реализацией инновационного кластера; Педагогическое образование состоит в следующем.

**Abstract:** Development of scientific, methodological and educational tools between types of education in the process of lifelong education according to the methodology of teaching organic chemistry using the cluster method, from testing scientific and pedagogical projects related to the implementation of an innovative cluster; pedagogical education consists of translation.

**Kalit so'zlar:** klaster, fiziologik, kognitiv, psixomotorik, affektiv, reflektor komponent, reproduktiv, subyekt.

**Ключевые слова:** кластер, физиологический, когнитивный, психомоторный, аффективный, рефлекторный компонент, репродуктивный, субъект.

**Keywords:** cluster, physiological, cognitive, psychomotor, affective, reflex component, reproductive, subject.

Klaster yondashuvi fan va ta'limi innovatsion klasteri doirasidagi ilmiy-pirovardida amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash hamda amalga oshirish imkonini yaratadi. Organik kimyoga oid tajribalarni klaster usulida o'rganish metodikasini takomillashtirishning modeli, reproduktiv, produktiv va kognitiv usullarini qo'llashning kompetensiyaviy mazmuni innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida talabalarning ijodiy-tahliliy qobiliyatları rivojlantirishi asoslab berilgan.

Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri bir guruh ta'lif subyektlarining innovatsion mahsulot yaratish va uning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradigan yangi tizim bo'lib, u sohaning milliy va mintaqaviy darajada rivojlanishi uchun kuchli rag'bat beradi. Klaster doirasida bir nechta subyektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy jarayondir. O'zaro bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiyl maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitoblar va ilmiy yechimlarni, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi, shundagina klaster subyektlarining ishonchini qozonadi. Shunday ekan, pedagogik ta'lif

innovatsion klasteri doirasidagi ilmiy-pedagogik loyihalarni amalda sinab ko'rish muayyan tajriba-maydonchalari bo'lishni talab etadi<sup>1</sup>.

Pedagogik ta'lifda bu sohaga nisbatan yangicha yondashuvlar, usul, vosita va shakllarning o'zgarishi, yangiliklarning ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan qabul qilinishi va ularning ilmiy asoslanishi bilan bog'liq jarayonlarda ko'zga tashlanadi.

Talaba, asosan, o'zio'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinalarda o'qituvchi – talaba an'anaviy ta'liddagi suhbat ishtirokchilar savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda talaba yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek tassurot uyg'otadi. Biroq psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga

<sup>1</sup> Turaeva X.T. Совершенствование процесса ведения самостоятельной системы образования по кластерному методу // Универсум: психология образования: электрон. научн. журн. 2023. 4(106).

ko'ra shaxsnинг табиий физиологик- психологияк имкониятлари муайян шаклларда о'злаштирилган билимларни турли дарajада саqlаб qолиш имконини беради. Zamonaviy ta'limga tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismonyi kuch sarf etmay, qisqavaqtichidayuksaknatijalargaerishishdir<sup>2</sup>. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'limga jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Hozirgi kunda mammalakatimizda ta'limga sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bugungi kunning dolzab vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mammalakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi "Tanqidiy tahlil, qa'tiy tartib intizom shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida ta'kidlandi<sup>3</sup>. Bunda yangilangan ta'limga tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'limga tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Organik kimyo fanini o'qitimish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar fanni talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kimyoviy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

"Ta'limga klasterlari" tushunchasining mohiyati oliy ta'limga muassasalarining maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunarta'limi, ixtisoslashtirilgan maktablar, asosiy korxonalar va mutaxassislarining asosiy mijozlari va iste'molchilar yetakchi filiali homiyligida birlashishidan iborat. Ta'limga klasterlari talabalarning kelajakda kasbiy faoliyati sohasigadepsinislarsiz kirib borish, yaxshi amaliyotlarni o'rganish va amalda qo'llash, real sharoitlarda ilmiy tadqiqot natijalarini sinab ko'rish va real vaqt hamda aniq sharoitlarda kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash imkonini beradi. Organik kimyoni klaster usulida o'qitish


o'quv maqsadlarning sohalari quyidagicha bo'ladi.

Zamonaviy o'qituvchining professionalligini shakllantirishda oliy ta'limga tayyorgarlik ishlari muhim rol o'ynaydi. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik prinsipi doirasida bu hamkorlik muayyan darsda amalga oshirilmoqda.

Kognitiv o'quv maqsadlar	Psixomotorik o'quv maqsadlar	Affektiv o'quv maqsadlar
Nazariy bilim, aqliy layoqat va ko'nikmalar sohasi:	Xatti-harakatlar bilan bog'liq ko'nikmalar sohasi:	O'zini tutish va xulq bilan bog'liq ko'nikmalar sohasi:
Organik kimyoni nazariy materialni eslash, nazariy o'quv materialni tushunish, nazariy materialni tahlil qilish, nazariy bilim natijalarini baholay olish.	Organik laboratoriya mashg'ulotlari bilan ishlash	Talabani mustaqil ishlash, kasbga qiziqish, mehnat qilishga intilish, o'rganishga tayyorgarlik, mas'uliyatni anglagan ravishda faoliyat ko'rsatish.

Ammo shu bilan birgalikda, bu borada hali qilinishi zarur bo'lgan qator muammolar ham mavjud.

Organik kimyo fanini klaster usulida o'qitish metodikasi



Kimyo fanlarini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi. Organik

2 Avliyakulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari . -Toshkent: 2001. 220 b.

3 Abdugodirov A. A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti . -Toshkent: «Fan», 2009. 180 b .

kimyo fanini klaster usulida o'qitish talabalarning bilim darajasini yanada oshirish, darsga nisbatan qiziqishini kuchaytirish, mustaqil ta'limga o'zlashtirish bilan birgalikda erkin fikrlashga olib keladi<sup>3</sup>. Klaster – bu diagramma shaklida o'rnatilgan asosiy sistematik birliklar ajratib ko'rsatilganda axborotni tashkil qilishning grafik shakli hisoblanadi. Ular orasidagi barcha aloqalarni grafik tarzda aks ettiradi, ushbu matnning axborot maydonini vizual shaklda belgilaydi.

O'qitishda klaster axborotni tushunish, aniqlash, saqlash va tizimlashtirish vositasi, shuningdek, ma'lum bir har qanday fan yo'naliishi bo'yicha bilimlarni rasmiylashtirish, ularning boshqa tuzilmalarga qo'llanish sohalari va boshqalar bilan aloqasi o'quv jarayonida aks etadi. Oliy ta'lim muassasalari organik kimyonni klaster usulida olib borish ularning og'zaki va yozma nutqini o'zgartirishga olib keladi. Eng muhimlarini tizimlashtirish va ajratib ko'rsatish orqali ularning professional tafakkurini shakllantiradigan ixcham grafik shakldagi ma'lumotlar yig'masi shakllanadi. Klasterlash jarayoni, aslida har xil turdag'i ma'lumotlar mavjud bo'lganda, aqliy tarkibni qisqartirish va ular vizual ramziy tasvirga birlashtirilgan bo'lib, ular bir marta idrok etilgandan so'ng, keyinchalik joylashtirilishi va aqliy amaliy harakatlar uchun tayanch bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Vizual ma'lumotlarning har qanday shakli, shu jumladan, klaster diagrammasi, muammoning elementlarini o'z ichiga oladi. Bu holatda muammoli vaziyat o'quv materialining mazmunini izohlash, matnni taqdim etishdir. Sxema-belgili modellar yordamida sinfda tashkilotchilik klaster bilan ishslash shakllari muammoli vaziyatni yaratishga yordam beradi, uni hal qilish, ya'ni sintez, umumlashtirish, tahlil qilish, qisqartirish asosida amalga oshiriladi yoki axborotni joylashtirish, ya'ni talabaning faol aqliy faoliyatini yuritish orqali olib boradi. Shunday qilib klaster usuli faol ta'lim ya'ni A.A.Verbitskiy talqinida – kontekstli ta'lim usullaridan biri bo'lib, bunda tarkibni loyihalash va joylashtirishning asosiy birligi hisoblanadi. Klaster tuzish bo'yicha ish jarayonida talabalar quyidagi ko'nikmalarini shakllantiradilar va rivojlantiradilar<sup>4</sup>. Savollar berish va ularga javob berish, ta'kidlash qobiliyati va asosiysi

sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish orqali xulosalar chiqariladi.

Tanlangan ko'nikmalar to'plami ta'lim, o'quv, ilmiy va kasbiy faoliyatda tadqiqot muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan tadqiqot vakolatlarini shakllantirishning texnologik tarkibiy qismi hisoblanadi. Klaster usuli "tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi" usullaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi aqliy qobiliyatlarini kengaytirishdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yordamida o'quvchilarning quyidagi fazilatlarini shakllantirish mumkin: qat'iyatlilik (maqsadga erishish kerak), moslashuvchanlik (boshqalarning g'oyalarini qabul qilish), murosali yechimlarni izlash, rejalashtirishga tayyorlik (kim aniq o'ylaydi, u aniq aytadi), talabalar kerakli xatolarini tuzatishga tayyor bo'lishi va qabul qilishni o'rganishga tayyorlaydi<sup>5</sup>.

Bu bosqichlarning amalga oshirish aqliy faoliyatini faollashtirish uchun bir yo'l bo'lib xizmat qiladi. Mavzuni o'rganish yoki uni o'tish natijalariga ko'ra materialni tizimlashtirish shakli talabalarga klaster qiziqishni uyg'otish, to'plangan ma'lumotlarni tuzatish uchun xizmat qiladi. Tushunish bosqichi imkon beradi. Yangi ma'lumotlar bilan tanishish, o'rganilayotgan obyektning tabiatini haqida o'ylash ularni mustaqil izlanishga yo'l ochib beradi.

An'anaviy ta'lim tizimiga ega bo'lgan sinfdagi zamonaviy talaba ko'pincha zerikadi va qiziqmaydi, o'rganish uchun motivatsiya yo'q. Shu munosabat bilan ushbu usuldan foydalanish rivojlanish yo'li bo'lishi mumkin.

Pedagogik tajriba-sinovni o'tkazishda asosan quyidagilarni sinab ko'rish nazarda tutildi<sup>6</sup>:

- organik kimyo fanini klaster usulida o'qitish mavzusiga doir o'qitiladigan didaktik, tarqatma va dars ishlanmalariga oid materiallar mazmunining tegishli oliy ta'lim muassasalaridagi ahamiyati;

- tanlangan oliy ta'lim muassasalarida "Organik kimyo fanini klaster usulida o'qitish mavzulari materiallarini o'rganishda talabalar qiziqishini orttirishning ilmiy-metodik jihatdan o'rinnligi;

- organik birikmalar mavzusi klaster usuli yordamida olib borish mavzusi

<sup>4</sup> Denisova V.G. Klub vseznaek. Uchitel. -Volgograd, 1-gimnaziya. Vneklassnaya rabota. Jurnal. «Ximiya v shkole». 2015. №5.-S. 25.

<sup>5</sup> Omonov H.T., Raxmatullaev N., Mirkomilov Sh. Kimyo o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod – Moliya, 2013. 172 b.

<sup>6</sup> Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. 572 b.

materiallarini o'rganishga doir tanlangan didktik materialarning tegishli oliy ta'limga muassasalarining talabalari tomonidan qay darajada nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirilishi;

- innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida organik birikmalarni klaster usuli yordamida o'tish talabalarni mustaqil ta'limga mavzusini o'zlashtirish bilan birlgilikda erkin fikrlashga olib kelishi va fanga bo'lgan qiziqishining oshganligi;

- tegishli oliy ta'limga muassasalarini talabalarining "Organik birikmalarni klaster usulida o'qitish" mavzulari bo'yicha o'quv faniga qiziqishlarini kuchaytirish va materiallarni o'rganishning tarbiyaviy ahamiyatliligi<sup>7</sup>;

- mashg'ulotda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kredit-modul tizimida berilgan mustaqil ta'limga mavzulariga oid modulli ta'limga materiallarning ushbu fanga bo'lgan qiziqishni orttirishdagi ta'limiylar tarbiyaviy ta'siri.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti, Qarshi davlat universitetlarining kimyo o'qitish metodikasi ta'limga yo'nalishlarining 2-bosqich talabalari tanlab olindi. Bu oliy ta'limga muassasalaridagi talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Pedagogik tajriba-sinov o'tkazish davrida organik kimyo fanini klaster usulida olib borish bo'yicha tanlangan didaktik va tarqatma materiallarni innovatsion texnologiyadan foydalaniib, talabalarga o'rgatish metodlari darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda sinab ko'rildi, test yoki yozma ish ko'rinishida o'tkaziladigan vazifalar bo'lib, "5" balli tizimda baholandi. Tajriba-sinov ishlarni yakuniydagi natijalari statistik tahlil qilindi<sup>8</sup>.

Darsda o'tkaziladigan nazoratda asosiy nazariy, laboratoriya mashg'uloti

savollarga qo'shimcha qilib to'yingan uglevodorodlar, to'yinmagan uglevodorodlar, aromatik uglevodorodlar, bir atomli spirtlar, karbon kislotalar, nitrobirikmalar, aminlar, aminokislotalar va oqsillar, geterohalqali birikmalar mavzusiga oid muammoli savollar kiritildi.

Tajriba-sinov yakunidagi natijalar statistik tahlil:

Ishonchli farqlanish darajasi 0,05 bo'lganligi uchun Pirson mezonini koeffitsientining qiymati jadvaldan olingan  $T_{mez} = 7,815$  ga teng qiymat olindi. "Xikvadrat" metodida hisoblanilgan Tkuz qiymati barcha hollarda Tkr < Tkuz ekanligi aniqlandi, ya'ni Chirchiq davlat pedagogika universitetida  $7,815 = T_{kr} < T_{kuz} = 11,14$  Guliston davlat universitetida  $7,815 = T_{kr} < T_{kuz} = 11,83$  Qarshi davlat universitetida  $7,815 = T_{kr} < T_{kuz} = 11,03$

3-bosqich talabalaridan olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarining samaradorligi 11 %ga, Guliston davlat universitetida talabalarining samaradorligi 10 %ga, Qarshi davlat universiteti talabalarining samaradorligi 10 % ga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Pedagogik ta'limga innovatsion klasteri doirasida ta'limga turlarining ilmiy, nazariy, amaliy metodik salohiyatlarini yagona maqsadga yo'naltirish, mavjud muammolarni bartaraf etish yoki ta'limga muassasalarining muayyan yo'nalishdagi ishlarning samaradorligini oshirishda ulardan oqilona foydalanish maqsadida tajriba-sinov sifatida "Organik kimyonni klaster usulida o'qitish metodikasi"ni olib borish samarali usul hisoblanadi.

7 Torayeva, N. T. (2023). Methods of Statistical Analysis of the Process of Organic Chemistry in the Cluster Method. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 25, 1-5.

8 Левина С.Г,Меншиков В.В,Лисун Н.М, Симонова М.Ж,Сутягин. А.А,Сычёв.В.А, Карпенко И.Г. «Новые подходы к организации химического эксперимента». Педагогический университет. Челябинск: Журнал.«Химия в школе».2015 . №1. –С. 43